

BOJXONA TA'LIMI INNOVATSION MUHITINI RIVOJLANTIRISHGA YANGI YONDASHUVLAR

Muratova Shohista Nimatullayevna

Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti

E-mail: shohista11@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada global raqamlashtirish, tez o'zgaruvchan iqtisodiy jarayonlar, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash kabi masalalar bojxona ishi bo'yicha mutaxassisning yangi kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishni, bojxona ta'limida innovatsion muhitni rivojlantirishga yangi yondashuvlarni joriy etishni talab qilishi, shuningdek innovatsion va tadbirkorlik faoliyatida o'zini ro'yobga chiqarishga ko'maklashuvchi maxsus psixologik ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiqligi yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, iqtisodiy xavfsizlik, bojxona xizmati, raqamli bojxona, innovatsion ta'lim muhiti, ta'lim o'quv rejasi, innovatsion jarayonni boshqarish.

NEW APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF AN INNOVATIVE ENVIRONMENT OF CUSTOMS EDUCATION

Muratova Shohista Nimatullayevna

Customs Institute of the Customs Committee

E-mail: shohista11@mail.ru

Abstract. In the article, issues such as global digitalization, rapidly changing economic processes, ensuring the country's economic security require the formation of new professional competencies of customs specialists, the introduction of new approaches to the development of an innovative environment in customs education, as well as special psychological education programs that help self-realization in innovative and entrepreneurial activities and proposals have been developed regarding the appropriateness of development and implementation of technologies.

Keywords: digital technologies, economic security, customs service, digital customs, innovative educational environment, educational curriculum, innovative process management.

XXI asrda raqamli texnologiyalar inson hayotining barcha jabhalariga: sanoat, xizmat ko'rsatish, iqtisodiyot va ta'lim sohalariga keng kirib bordi. Raqamlashtirish global jarayonga aylandi, u har kuni hayotimizga tobora ko'proq kirib boradi va o'zgaradi. Mamlakatimizda raqamlashtirish amalga oshirilayotgan asosiy soha bu iqtisodiyotdir. Davlat oldida ham mamlakat ichida, ham tashqi dunyoda iqtisodiy jarayonlarni ta'minlashda muhim vazifa turibdi. Ushbu masalada asosiy rol iqtisodiy xavfsizlikni amalga oshirish bo'lib, uning ijro etilishida mamlakatimiz bojxona organlari tomonidan ham tegishli ishlar amalga oshiriladi.

Iqtisodiyoti yuqori rivojlangan mamlakatlarda bojxonada yangi raqamli texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi, Kanada va Singapurda Big Data, sun'iy intellekt kabi raqamli texnologiyalar muvaffaqiyatli ishlab chiqilib, joriy etilmoqda. Avstraliyada tovarlarning raqamli identifikatsiyasidan foydalanish rejalashtirilgan, bu radiochastota identifikatsiyasi (RFID) bo'ladi. Konteynerda joylashgan internetga ulangan datchiklar har qanday marshrut o'zgarishi, yukning o'zgartirilishi, shuningdek, harorat, namlik kabi boshqa parametrlar haqida avtomatik ravishda kuzatib boradi va xabardor qiladi. Singapur bojxona xizmati blokcheyn texnologiyasiga asoslangan Singapurning onlayn savdo platformasidan foydalanadi, bu esa bojxona jarayonlarini boshqarishning yanada samarali, xavfsiz va tejamkor usullarini taklif etadi [1].

So'nggi 10 yillikda zamonaviy savdo jarayonlaridagi tendensiyalarning o'zgarishi bojxona xizmatini raqamlashtirish kerak bo'lgan vektor sifatida belgilandi. Milliy bojxona organlari tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tishda bojxona operatsiyalarini nazorat qilish va soddalashtirish tizimiga yangi texnologiyalarni faol ravishda joriy qilmoqdalar [2].

Bu vazifani puxta tayyorgarlik ko'rgan xodim bajaradi, shuning uchun raqamli bojxonani rivojlantirish doirasida belgilangan maqsadga erishish uchun mehnat resurslarining zamonaviy faol tayyorgarligi zarur. Bugungi kunda raqamlashtirish sharoitida yosh mutaxassislarni tayyorlash darajasi masalasi mehnat bozorida qayta-qayta ko'tarilmoqda. Ish beruvchilar ko'proq yangi xodimlarning o'z faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini bilmasliklari, shuningdek, dasturiy mahsulotlar bilan ishlash ko'nikmalarining yetishmasligi muammosiga duch kelishmoqda. Shu munosabat bilan, bojxona ishi bo'yicha mutaxassisning yangi kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish zarurati tug'ildi.

Kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan bog'liq ko'nikmalarni mustahkamlash va rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar bojxona organlarining bo'lajak kadrlari samaradorligining bevosita sharti bo'lib, bojxona xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan mutaxassislarni kasbiy tayyorlashda yangi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni shakllantirishga olib keladi.

Bugungu innovatsion ta'lim muhiti tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Guruhda birgalikda ishlash ko'nikmasini shakllantirish hamda tadqiqotlarni, ishlanmalarni amalga oshirish maqsadida o'tkaziladigan jamoaviy loyihaviy ta'lim. Loyiha guruhining ishi mutaxassislarni tayyorlash jarayonining bir elementi sifatida tashkil etiladi. Loyiha g'oyasi tajriba ishlanmasining texnik topshiriqdan to'g'ri tajriba namunasigacha bo'lgan asosiy bosqichlarni bosib o'tadi. Ta'lim o'quv rejasi bilan loyihalash jarayonida loyiha natijasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ayrim fanlarni o'qitishni nazarda tutiladi.

2. Maqsadlari quyidagicha bo'lgan talabalar biznes-inkubatori:

- yuqori texnologiyali mahsulotlar yoki texnologiyalarni yaratish va realizatsiya jarayoniga bakalavriat va magistratura talabalarini jalb qilish;

- talabalar, mustaqil izlanuvchilar va oliy ta'lim muassasasi yosh olimlarini kichik innovatsion jarayonni boshqarishga o'rgatish.

3. Tanlov asosida talabalarning loyihalarini grantlar bilan qo'llab-quvvatlovchi investisiya fondi.

4. Talabalar va o'qituvchilarga tadqiqot va ishlanmalar natijalarini sotish uchun mos bozorlarni topishga yordam beruvchi tijoratlashtirish idorasi.

5. Innovatsion ishlanmalarni patentlash va litsenziyalashga yordam beruvchi intellektual mulkni himoya qilish agentligi.

6. O'quv-ilmiy innovatsiyalar majmuasi. Uning maqsadi ilm talab qiladigan sohada biznesni rivojlantirish va ilmiy maktablarning yutuqlarini milliy va jahon innovatsion texnologiyalar bozorlarida joylashtirishdir.

7. Innovatsion mahsulotni yaratish va bozorga olib chiqishda "ta'lim – fan – biznes" triadasining faoliyatini ta'minlash [3].

8. Innovatsion ta'lim muhiti innovatsion va tadbirkorlik faolligiga ega bo'lgan yoshlarga qaratilgan. Bunda yoshlarning shaxsiy kompetensiyalari, resurslari va salohiyatini shakllantirish, ularning innovatsion va tadbirkorlik faoliyatida o'zini-o'zi ro'yobga chiqarishiga ko'maklashuvchi maxsus psixologik ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarurati tug'ildi.

Bojxona ishi bilimlarning turli yo'nalishlarini o'zida mujassamlashtirgan va davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlovchi ko'p qirrali faoliyat sifatida bojxona ishini raqamli

o'zgartirish sharoitida zarur kompetensiyalarga ega bo'lgan maxsus tayyorlangan kadrlarni talab qiladi. Bunda amaliy mashg'ulotlarni yaxshilash uchun quyidagilarni hisobga olish kerak:

- 1) bitiruvchilarni olingan profilli malakaga muvofiq ishga joylashtirishga samarali ko'mak beradigan tashkiliy chora-tadbirlar majmuini shakllantirish;
- 2) bojxona organlarida kelajakdagi kasbga qiziqish va ishtiyoqni shakllantirish;
- 3) bojxona organlari xodimlarini jalb qilgan holda mahorat darslari o'tkazish;
- 4) bojxona organlarining mansabdor shaxslarini ixtisoslashtirilgan fanlarni o'tkazishga jalb etish;
- 5) talabalar va tinglovchilarning bojxona organlarida o'tkaziladigan tajriba va operatsiyalarda ishtirokini ta'minlash;
- 6) bojxona xizmati faoliyatida qo'llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlar bo'yicha treninglar o'tkazish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bo'lajak mutaxassislarni sifatli tayyorlash va real mehnat sharoitlariga moslashishni ta'minlash maqsadida yangi taklif etilayotgan texnologiyalarni nafaqat tajribalarda ishtirok etayotgan bojxona organlarida, balki maqsadli tayyorgarlikka qabul qilingan tinglovchilarda ham sinovdan o'tkazish mumkin. Tez orada bevosita bu bilan ishlashga majbur bo'ladigan xodimlar va bo'lajak yosh mutaxassislar o'rtasida tajribaviy usullarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkoni yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Обзор «Стратегическое руководство в области информационных технологий Всемирной таможенной организации – передовой опыт таможенных служб третьих стран по переходу к цифровой таможене» / Департамент таможенного законодательства и правоприменительной практики Евразийской экономической комиссии, 2018 г. [Электронный ресурс]. URL: http://eec.eaeunion.org/ru/act/tam_sotr/edinoe_okno/Documents/%D0%BE%D0%B1%D0%B7%D0%BE%D1%80_2018.pdf (murojaat sanasi: 18.03.2024-y).
2. [/eef.eaeunion.org/ru/act/tam_sotr/edinoe_okno/Documents/%D0%BE%D0%B1%D0%B7%D0%BE%D1%80_2018.pdf](http://eef.eaeunion.org/ru/act/tam_sotr/edinoe_okno/Documents/%D0%BE%D0%B1%D0%B7%D0%BE%D1%80_2018.pdf) (murojaat sanasi: 18.03.2024-y).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi PF-122-son "Bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/5998615> (murojaat sanasi: 18.03.2024-y).
4. Покровская Е.М., Смольникова Л.В., Ларионова А.В. Системная интеграция студентов в инновационно-предпринимательскую деятельность: монография. – Томск: Издательство университета систем управления и радиоэлектроники, 2012. – 200 с.